

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING ISH VAQTI HAQIDA

Radjapova Lola

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Jinoyat-protsessual
huquqi kafedراسي katta o'qituvchisi, yu.f.b.f.d.,
<https://doi.org/10.5281/zenodo.14744864>

Dam olish har bir insonning tabiiy va uzviy huquqlaridan biri bo'lib, mehnat unumdorligi, mehnatga layoqatlilik ko'p jihatdan o'z vaqtida dam olishga ham bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasining amaldagi mehnat qonunchiligi xodimlarning dam olishi va ish qobiliyatini tiklashi uchun ta'tilning bir necha turini mustahkamlaydi. Inson huquqlariga oid fundamental xalqaro hujjat hisoblanmish Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ham bu borada shunday normalarni ta'kidlab o'tadi: "Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, shu jumladan ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega"[7]

Shaxslarning ish vaqti va dam olish vaqti masalalari mehnat shartnomasi tuziladigan munosabatlardagina tilga olinishi mumkin. Chunki aynan mana shunday toifadagi xodimlargagina mehnat qonunchiligi bilan o'rnatiladigan huquqiy kafolatlar qo'llaniladi. Fuqarolarning mazkur yo'nalishdagi huquqlarini tartibga solishda nafaqat milliy qonunchiligimiz balki O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratfikatsiya qilingan Xalqaro mehnat tashkilotining konvensiyalarini ham e'tiborga olish lozim[8, B.3]. Chunki "ish vaqti va dam olish vaqti masalalari doimo XMT hujjatlarida katta e'tibor berilgan" [8, B.9]. 1935-yil 22-iyunda qabul qilingan "Ish vaqtini haftada qirq soatgacha qisqartirish to'g'risida"gi 47-Konvensiya O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan Xalqaro Mehnat Tashkilotining birinchi konvensiyasidir. Konvensiya 8 ta moddadan iborat bo'lib, 1957-yil 23-iyunda kuchga kirgan. Uning 1-moddasiga ko'ra Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro Mehnat Tashkilotning har bir a'zosi quyidagilarni ma'qullashini bildiradi: a) qirq soatlik ish haftasi prinsipi shunday qo'llanilishi kerakki, natijada mehnatkashlar turmush darajasini pasayishiga olib kelmasligi darkorligi; va b) shu maqsad himoyasi uchun maqbul hisoblanadigan chora-tadbirlar ko'rilishini va tadbirlarga yordam berishni; (Tashkilotning mazkur a'zosi tomonidan ratifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan) ayrim konvensiyalarning batafsil qoidalariga majburan qo'llash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 181-moddasiga muvofiq "Xodim ish tartibi yoki grafigiga yohud mehnat shartnomasi shartlariga muvofiq o'z mehnat vazifalarini bajarishi lozim bo'lgan vaqt ish vaqti hisoblanadi" [1].



Ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqti ham O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligiga muvofiq, umumiy davomiyligi haftasiga 40 soatdan ortiq bo‘lmagan qilib belgilangan[2], Mehnat Kodeksining 181-moddasi[1]da ish vaqtining turlarida betartib ish vaqti deya ko‘rsatilmagan, unga muvofiq haftada ish vaqti 40 soatdan oshmasligi, ish vaqtining normal davomiyligi besh kunlik yoki olti kunlik ish haftasida haftasiga qirq soatdan ortiq bo‘lishi mumkin emasligi belgilangan.

Bizda esa ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqti betartib ekanligi barchamizga ayon. Rossiya Federatsiyasida ham ish vaqti haftada 40 soatdan oshmasligi, og‘ir hududlarda xizmat olib boruvchi ayollar uchun esa 36 soat etib belgilangan. Shuningdek, qoidaga nomuvofiq ishlovchi xodimlar (asosan rahbarlar)ga qo‘shimcha ravishda asosiy ta’tildan tashqari 10 kungacha ta’til qo‘shib berilishi mumkinligi nazarda tutilgan[3]. Ma’lumki, xodimning ish vaqti, dam olish, har yilgi mehnat ta’tili uning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, “odatdagi xizmat o‘tash rejimi olti kunlik ish haftasi o‘rnatilishini nazarda tutadi, bunda kunlik ish davomiyligi yetti soatdan, besh kunlik ish haftasida esa – sakkiz soatdan oshmasligi kerak hamda sutkalik rejimda kamida sakkiz soat dam olish uchun vaqt berilgan holda yigirma to‘rt soat davomida xizmat o‘tash”[4]ni nazarda tutuvchi normalar mavjud.

Prezidentimiz tomonidan “Hozirgi vaqtda davlat va hokimiyat idoralarida ko‘p hollarda kadrlar salohiyatidan foydalanish, ularning vazifa va vakolatlari taqsimoti oqilona va samarali yo‘lga qo‘yilmagani sezilmoqda. Eng yomoni, bu holat ishimizga xalaqit bermoqda. Bir idorani qarasangiz, yuzlab odam nomiga ishlab o‘tiribdi. Boshqa idorani qarasangiz, ish ko‘p, vazifa ko‘p, lekin ishlaydigan odam, kadr yetishmaydi” deya ta’kidlagan [5].

Buning asosiy sabablaridan biri sifatida ishning to‘g‘ri taqsimlanmasligi yoki xodimlarga o‘z vaqtida dam berish masalalari to‘liq tartibga solinmasligi deyish mumkin.

Ichki ishlar organlarida nafaqat xodimlarning asosiy majburiyatlari, vazifalarini qonunga so‘zsiz amal qilgan holda bajarishlarini talab qilish balki ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoya qilish choralari ham tengma-teng adolatli ravishda amalga oshirilishi lozim. Chunki xodimlardan majburiyatlari va vazifalari talab qilinishi bilan bir qatorda unga davlat, tizim ham qonun bilan belgilab qo‘yilgan ijtimoiy himoya kafolatlarini ta’minlashi kerak.

Tibbiyot olimlarining fikricha, tungi ish jarayonida va tungi ishdan qaytish vaqtida yo‘lda jarohatlanish (avtohalokatlar) ehtimoli yuqori bo‘ladi, chunki



uyquga qarshi “kurashish” zarurati diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytirishi, mehnat unumdorligini tushirishi va mayda harakatlar (motorikalar) boshqaruviga salbiy ta’sir ko’rsatishi, organizm uyquga qarshi kurashishi natijasida yurak-qon tomir kasallikari, depressiya, yuqori ruhiy zo’riqish, doimiy charchoq va boshqa kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin [].

Albatta, xodim o’z vaqtida dam olmasligi, tunu-kun xizmatda bo’lib, ruhiy zo’riqishi, doimiy stress holatida yurishi ish koeffitsientiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Xususan, ommaviy axborot vositalari orqali e’lon qilinayotgan xabarlarida ham xodimlarning tungi vaqtda avtohalokatga uchrab vafot etish holatlari uchrab turadi [6].

Zarur hollarda xodimlar belgilangan muddatdan ortiq, shuningdek tungi vaqtda, dam olish va bayram kunlarida xizmat vazifalarini bajarishga jalb etilishlari ham mumkin.

Mehnat qonunchiligimizga muvofiq, ish vaqti haftalik hisobga olinganda xodim uchun belgilangan haftalik ish vaqtining davomiyligidan oshadigan ish vaqtdan tashqari ish deb hisoblanadi[1, 189-modda]. Shuningdek, ish vaqtdan tashqari ish uchun kamida ikki hissa miqdorida haq to’lanishi, xodimning xohishiga ko’ra ish vaqtdan tashqari ish uchun oshirilgan haq to’lash o’rniga ish vaqtdan tashqari ishlab berilgan vaqtning davomiyligiga muvofiq keladigan qo’shimcha dam olish vaqtini berish bilan kompensatsiya qilish yoki bir hissa miqdorida haq to’lanishi belgilangan. Ichki ishlar organlari xodimlarining ish vaqtdan tashqari ishga jalb qilinganliklari uchun qo’shimcha dam olish vaqtini berish orqali kompensatsiya qilish yoki bir hissa miqdorida haq to’lanishni belgilovchi normani ichki ishlar organlari to’g’risidagi qonunchilikka tadbiq etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi (28.10.2022 y)// Elektron manba: <https://lex.uz/ru/docs/-6257288> (murojaat vaqti: 20.01.2025 y).
2. O’zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrdagi “Ichki ishlar organlari to’g’risida”gi O’RQ-407-son Qonuni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/3027843> (murojaat vaqti: 13.01.2025).
3. Федеральный закон Российской Федерации от 30 ноября 2011 г. № 342-ФЗ (ред. от 04.08.2023) “О службе в органах внутренних дел Российской Федерации и внесении изменений в отдельные законодательные акты Российской Федерации”.
- O’sha manba.
4. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini



tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son Qarori //Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/3430641> (murojaat vaqti: 13.01.2025).

5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida qilgan inauguratsion nutqi (14.12.2016 y) // Elektron manba: <https://www.norma.uz> (murojaat vaqti: 13.01.2025).

6. Xorazmda ichki ishlar organi bo'lim boshlig'i avtohalokat oqibatida halok bo'ldi <https://daryo.uz/2023/08/07/xorazmda-ichki-ishlar-organi-bolim-boshligi-avtohalokat-oqibatida-halok-boldi>(murojaat vaqti: 20.01.2025).

7. Гасанов М.Ю., Сарымсакова Г.К. Правовое регулирование рабочего времени и времени отдыха. Учебное пособие. – Т.: ИПТД ООО «Фуқаролик жамияти» 2017

Енилина А.В. Проблемные аспекты регулирования рабочего времени и времени отдыха. КазФУ. <https://cyberleninka.ru/article/n/problemnye-aspekty-regulirovaniya-rabochego-vremeni-i-vremeni-otdyha>(murojaat vaqti: 23.01.2025).

Черникова Е.Ф. Влияние сменного характера труда на состояние здоровья работников // Elektron manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/vliyanie-smennogo-haraktera-truda-na-sostoyanie-zdorovya-rabotnikov/viewer> (murojaat vaqti: 23.01.2025 y).

